XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA EZGU TILAK BILDIRUVCHI BIRLIKLARNING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-19-20

Eshpo‘latov Nurali Nizomiddin o‘g‘li
Xitoyshunoslik oliy maktabi stajor o‘qituvchisi
nur2023ali@mail.ru

A COMPARATIVE-SEMANTIC ANALYSIS OF UNITS EXPRESSING GOOD WISHES IN CHINESE AND UZBEK

Eshpo‘latov Nurali Nizomiddin o‘g‘li
Trainee Lecturer, School of Chinese Studies
nur2023ali@mail.ru

Annotatsiya. *Tezisda xitoy tilidagi 吉祥语 hamda o‘zbek tilidagi tilak va olqish birliklari qiyosiy-semantik jihatdan o‘rganiladi. Baxt, sog‘lik, uzoq umr, farovonlik, oila va omonlikni ifodalovchi birliklarning umumiy semantik xususiyatlari, funksional muvofiqligi hamda milliy-madaniy farqlari aniq misollar asosida tahlil qilinib, ularning o‘zaro ekvivalentlik darajasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *吉祥语, ezgu tilak, olqish, semantika, qiyosiy tahlil, ekvivalentlik, baraka, lingvomadaniyat.*

Barcha xalqning ezgu niyat va istaklari uning tilida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Xitoy tilida bu vazifani bajaruvchi birliklarning muhim qismini 吉祥语 tashkil etadi. Ular kundalik muloqot, bayram va turli marosimlarda baxt, sog‘lik, uzoq umr, farovonlik hamda omonlik tilash uchun qo‘llanadi. 赵日新 吉祥语 mazmunida baxt, yaxshi taqdir, uzoq umr va quvonch kabi tushunchalarning muhim o‘rin tutishini qayd etadi. 岳茜茜 esa bu birliklarni insonning yaxshi hayotga bo‘lgan istaklarini ifodalovchi va ijtimoiy muloqotga xizmat qiluvchi til hodisasi sifatida talqin qiladi. O‘zbek tilida shunga yaqin kommunikativ vazifa tilak, olqish, duo va boshqa ijobiy istak bildiruvchi birliklar orqali amalga oshadi.

Dastlab sog‘lik va uzoq umr bilan bog‘liq birliklarga e’tibor qaratish mumkin. Xitoy tilidagi 身体健康 bilan o‘zbek tilidagi “Sog‘-salomat bo‘ling” mazmun va qo‘llanish maqsadi jihatidan juda yaqin. 寿比南山 va 长命百岁 kabi birliklarga o‘zbek tilidagi “Umringiz uzoq bo‘lsin”, “Yuzga kiring” tilaklari funksional jihatdan mos keladi. Bu misollarda istakning semantik asosi umumiy bo‘lsa-da, uni ifodalash usuli turlicha. Xitoy tilida uzoq umr mazmuni 寿 konsepti atrofida keng shakllangan bo‘lib, 长命富贵, 百龄眉寿, 天保九如, 寿比南山 kabi birliklarda ham kuzatiladi.

Nikoh va oilaviy hayotga oid tilaklarda ham o‘xshash holat mavjud. Xitoy tilidagi 百年好合 yangi turmush qurganlarga uzoq yillar ahil yashash tilagini bildiradi, 白头偕老 esa birgalikda keksayish mazmunini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi “Baxtli bo‘linglar”, “Bir yostiqqa bosh qo‘yinglar”, “Qo‘sha qarib yuringlar” kabi tilaklar shunga yaqin vazifani bajaradi. Ayniqsa, 白头偕老 va “Qo‘sha qarib yuringlar”da keksayish obrazi orqali nikohning uzoq davom etishi ifodalangan. Shu sababli ularni funksional-semantik jihatdan bir-biriga yaqin birliklar sifatida baholash mumkin.

Ikki til o‘rtasidagi farq boylik va farovonlikka oid tilaklarda aniqroq ko‘rinadi. Xitoy tilidagi 恭喜发财, 财源广进, 生意兴隆 kabi birliklarda moddiy farovonlik va ishning rivojlanishiga bo‘lgan istak bevosita ifodalanadi. O‘zbek tilida esa “Rizqingiz ulug‘ bo‘lsin”, “Barakangiz ziyoda bo‘lsin”, “Ishingizga rivoj bersin” kabi tilaklar ishlatiladi. Masalan, 财源广进 va “Rizqingiz ulug‘ bo‘lsin”ning kommunikativ maqsadi yaqin, biroq 财 va rizq tushunchalarining semantik chegarasi bir xil emas. 财 da boylik va moddiy mablag‘ ma’nosi kuchli bo‘lsa, o‘zbekcha rizq hamda baraka moddiy boylikdan kengroq madaniy mazmunni anglatishi mumkin. Shuning uchun bunday birliklarni to‘liq lug‘aviy ekvivalent emas, balki funksional jihatdan yaqin, qisman semantik muvofiqlikka ega birliklar sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Tahlil qilingan misollar xitoy va o‘zbek tillaridagi ezgu tilaklarning asosida mushtarak qadriyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikki tilda baxt, sog‘lik, uzoq umr, oilaviy totuvlik, farovonlik va omonlik asosiy semantik yo‘nalishlarni tashkil etadi. Farq, avvalo, shu istaklarning qanday tushuncha va obrazlar orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Xitoy tilida 福、寿、喜、财、安 kabi tushunchalar 吉祥语 larning muhim semantik tayanchlari bo‘lsa, o‘zbek tilidagi tilak va olqishlarda baxt, baraka, rizq, nasiba, umr va omonlik kabi tushunchalar faol qatnashadi. Demak, ikki tildagi ezgu tilaklarni qiyoslashda faqat lug‘aviy muqobillikka emas, balki semantik mazmun, kommunikativ vazifa va milliy-madaniy xoslikka birgalikda e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 岳茜茜. 《认知语言学视角下的汉语吉祥语研究》: 硕士学位论文. – 广西民族大学, 2017.
2. Eshpo‘latov N.N. Hozirgi zamon xitoy tilida jisyangyuy (吉祥语)larning semantik-stilistik tadqiqi: magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.
3. 李明佳. 《吉祥语和民族文化》 // 《辽宁教育行政学院学报》. 2008 年第 9 期. – 109 页.